



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI


NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI

*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*


2023-yil yanvar-dekabr

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

yanvar-dekabr, o‘shish darajasi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so‘m



Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori dinamikasi, so‘mda




Ma‘lumot uchun: Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdoriga 2023-yil 1-dekabrda o‘zgartirish kiritildi hamda **1 050,0 ming so‘mga** yetkazildi.

2023-yil yanvar-dekabr oylari uchun o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichini shakllantirishda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo‘jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.


Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxonalar va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o‘rinlarda – o‘rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo‘shimcha to‘lovlar, mukofot pullari, rag‘batlantiruvchi to‘lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to‘lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.



O‘rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo‘yicha o‘zgarish dinamikasi, yanvar-dekabr, ming so‘m



2023 - yilda o‘rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



2023-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng baland ko‘rsatkichi – bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish darajasi **120,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, axborot va aloqa sohasi **169,9 %**, savdo sohasida **139,3 %**, qurilish sohasida **123,5 %**, tashish va saqlash sohasida **121,1 %**, ta'lim sohasida **115,9 %**, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasi **115,2 %** hamda sanoat sohasi **112,6 %**, ga o‘sganligini ko‘rishimiz mumkin.


SANOAT SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



■ ming so‘m

● o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati, % da

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



27 598,1

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



5 104,5

Ishlab chiqarish
sanoati



2 208,9

Suv bilan ta‘minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish
va utilizatsiya qilish




7 371,5


Elektr, gaz, bug‘
bilan ta‘minlash va
havoni konditsiyalash

Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog‘i (**27 598,1 ming so‘m**), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (**7 371,5 ming so‘m**) hamda ishlab chiqarish sanoati (**5 104,5 ming so‘m**)da kuzatildi.


Sanoat sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (**9502,2 ming so'm**), Taxiatosh tumani (**7906,1 ming so'm**) hamda Qo'ng'iro't tumani (**5113,6 ming so'm**) kuzatildi.

QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Qo'ng'iro't tumani (**4784,7 ming so'm**), Taxiato'sh tumani (**3773,5 ming so'm**) hamda Nukus shahri (**3605,7 ming so'm**)da qayd etildi.

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



SAVDO SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



2 478,9

Oziq-ovqat mahsulotlari,
jumladan, ichimliklar va
tamaki mahsulotlari
ulgurji savdosi



4 428,1

Avtomobil va
mototsikllarning
savdosidan tashqari
ulgurji savdo



9 525,2

Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash




1 336,5


Avtomobil va
mototsikllarning
savdosidan tashqari
chakana savdo

Savdo sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash (**9 525,2 ming so'm**)da, eng past ko'rsatkich esa avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo (**1 336,5 ming so'm**)da kuzatildi.

Savdo sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi




Hududlar kesimida




■ ming so'm ■ o'sish sur'ati

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Savdo sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Taxiato'sh tumanida (**4435,4 ming so'm**) qayd etilgan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Nukus shahrida (**2882,3 ming so'm**) kuzatildi.

TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi



5 425,1 ming so'm

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati



5 414,9 ming so'm

Quruqlikdagi va quvur transporti




2 037,4 ming so'm

Pochta va kuryerlik faoliyati




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati (**5 425,1 ming so'm**)da, eng past ko'rsatkich esa pochta va kuryerlik faoliyati (**2 037,4 ming so'm**)da kuzatildi.

Tashish va saqlash sohasida tarmoqlar bo‘yicha ish haqi o‘zgarishi dinamikasi



Hududlar kesimida




O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qo‘ng‘irot tumani (**6400,4 ming so‘m**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘sish sur‘ati Ellikqal‘a tumanida (**158,7%**), Nukus shahrida (**139,4 %**) hamda Qo‘ng‘irot tumanida (**131,4 %**) qayd etildi.

AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi



7 636,3
ming so‘m

Aloqa
sohasi

Axborot
xizmati ko‘rsatish
sohasidagi faoliyat

3 150,8
ming so‘m




2 236,4
ming so‘m


Noshirlik
faoliyati

Axborot va aloqa sohasining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi aloqa sohasi (**7 636,3 ming so‘m**)da, eng past ko‘rsatkich esa noshirlik faoliyati (**2 236,4 ming so‘m**)da kuzatildi.


Axborot va aloqa sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (**6382,7 ming so'm**) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qonliko'l tumani (**2,5 barobar**), Kegeyli tumanida (**2,1 barobar**), Chimboy tumanida (**2,0 barobar**) hamda Nukus shahrida (**170,1%**) qayd etildi.

BANK, SUG‘URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyatining asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi



5 920,0 ming so‘m

Majburiy ijtimoiy sug‘urtalashdan tashqari, qayta sug‘urtalash va nafaqa jamg‘armalari faoliyati



10 897,4 ming so‘m

Sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar




4 415,7 ming so‘m


Moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyat

Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi sug‘urtalash va nafaqa ta‘minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar (**10 897,4 ming so‘m**)da eng past ko‘rsatkichi esa moliyaviy xizmatlar ko‘rsatish va sug‘urtalash bo‘yicha yordamchi faoliyati (**4 415,7 ming so‘m**)da kuzatildi.


Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (**12 255,9 ming so'm**) da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Qonliko'l tumani (**136,9 %**), Taxtako'pir tumani (**132,5 %**) hamda Taxiato'sh tumanida (**132,1 %**) qayd etildi.

TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi

Oliy
ta'lim

6 109,9
ming so'm



3 032,5
ming so'm

Umumiy
o'rta ta'lim

Texnik va
professional ta'lim

3 011,9
ming so'm




1 696,2
ming so'm


Maktabgacha
ta'lim

Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi oliy ta'lim (**6 109,9 ming so'm**)da, eng past ko'rsatkich esa maktabgacha ta'lim (**1 696,2 ming so'm**)da kuzatildi.


Ta'lim sohasida tarmoqlar bo'yicha ish haqi o'zgarishi dinamikasi



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Ta'lim sohasi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Nukus shahri (**3998,0 ming so'm**), Kegeyli tumani (**3053,6 ming so'm**) hamda Xo'jayli tumanlari (**3031,0 ming so'm**)da kuzatildi. Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati Shumanay tumanida (**124,3 %**), Qorao'zak (**120,0 %**), Nukus shahri (**119,3 %**) hamda Qo'ng'iro't tumanlarida (**118,9 %**) qayd etildi.

SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI




Hududlar kesimida



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasining faoliyati turi bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi Qonliko‘l (**3854,4 ming so‘m**), Chimboy (**3803,3 ming so‘m**), Xo‘jayli (**3496,4 ming so‘m**) tumanlarida hamda Nukus shahrida (**3484,7 ming so‘m**) kuzatildi. Shuningdek, yuqori o‘shish sur‘ati Mo‘ynoq tumani (**128,3 %**), Taxtako‘pir (**125,4 %**) hamda Bo‘zatov (**122,4 %**) tumanlarida qayd etildi.

O‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so‘m



DEMOGRAFIYA VA MEHNAT STATISTIKASI BO‘LIMI

Nominal hisoblangan ish haqi – ma’lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to‘lovlarni o‘z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to‘lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.



Tel.: 61 222-76-57